

**O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

MAVLANOVA MOXIGUL URALOVNA

**“FARHOD VA SHIRIN”: ADABIY MATN TARKIBI
VA G'OYAVIY-BADIIY TALQIN**

10.00.02 – O'zbek adabiyoti
(filologiya fanlari)

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**



Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Mavlanova Moxigul Uralovna

“Farhod va Shirin”: adabiy matn tarkibi va g'oyaviy-badiiy talqin 3

Mavlanova Moxigul Uralovna

“Farhad and Shirin”: the structure of the literary text and its ideological
and artistic interpretation 23

Мавланова Мохигул Ураловна

“Фархад и Ширин”: структура литературного текста
и идейно-художественная интерпретация 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

List of published works

Список опубликованных работ 47

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

MAVLANOVA MOXIGUL URALOVNA

**“FARHOD VA SHIRIN”: ADABIY MATN TARKIBI
VA G‘OYAVIY-BADIIY TALQIN**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(filologiya fanlari)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**



Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi
O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3342 raqami
bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asadov Maqsud Husenovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Ochilov Ergash Zokirovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12- DEKABR soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (99 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12- DEKABR da tarqatildi.
(2025-yil 12- DEKABR dagi 12- raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

B. To'xliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filol.f.d-ri., prof.

[Handwritten signature]

D. Asqarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.b.f.d-ri

[Handwritten signature]

U. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
filol.f.d-ri., prof.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida Alisher Navoiy adabiy merosi Sharq badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotining eng muhim bosqichi sifatida alohida e'tirof etib kelinadi. Ayniqsa, dunyo ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan umuminsoniy qadriyatlar va ruhiy kechinmalarning teran ifodasi ulug' shoir ijodiyotida, xususan, muazzam "Xamsa" asarida ifoda topgani navoiyshunoslikda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida obraz yoki timsollar badiiy asarning estetik ta'sir kuchi va ma'naviy quvvatini oshirib, uning mazmun-mohiyatini atroflicha ochib berishda alohida o'rin tutishiga diqqat qaratilgan. Obrazlar orqali muallifning tasavvur va taxayyul olami, ma'naviy-axloqiy qarashlari, hayotiy xulosalari nihoyatda yorqin, o'ziga xos jonli bir tarzda aks ettiriladi. Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotining tadrijiy takomili, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, xususan, obrazlar olami, ularning ramziylik va majoziylik xususiyatlari jahon adabiyotshunosligida u yoki bu darajada tadqiq etilmoqda.

O'zbek ilm-fanida esa, ayniqsa, bugungi kunda ulug' mutafakkir va shoir Alisher Navoiy asarlari poetikasi, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini tadqiq etishga qiziqish yanada ortib bormoqda. Zero, "o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish, bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega"¹. Shu ma'noda, o'zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy asarlari, xususan, muazzam "Xamsa" asari tarkibidagi "Farhod va Shirin" dostonining ma'no qamrovi, mavzu ko'lami, badiiy xususiyatlarini ilm-fandagi keyingi tahlil va talqinlar asosida ochib berish va dostonning o'rganilish tarixini yetarlicha baholash o'zbek adabiyotshunosligini yangicha qarash va tahlillar bilan boyitishga xizmat qilishi shubhasizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yillicini keng

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. www.xabar.uz. 07.08.2018.

nishonlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, Alisher Navoiy tarjimai holi, ijodiy merosini o'rganish o'zbek adabiyotshunosligining eng asosiy masalalaridan biri sanaladi. Xususan, "Xamsa"ning ikkinchi dostoni – "Farhod va Shirin"ga jiddiy ilmiy munosabat XX asrning birinchi choragidan boshlangan. Professor Abdurauf Fitratning "Farhod-u Shirin" dostoni to'g'risida" nomi bilan chop etilgan maqolasi bu boradagi dastlabki qadamdir². Unda dostonning xalq og'zaki ijodidagi hamda yozma adabiyotdagi variantlari qiyosan o'rganilgan. Shuningdek, Y.E.Bertels, S.Ayniy, O.Sharafiddinov, V.Zohidov, Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzoda, T.Jalolov, S.Erkinov, S.G'aniyeva, A.Qayumov, A.Rustamov, T.Ahmedov kabi olim va ijodkorlar dostonning obrazlar genezisiga, jumladan, adabiyotda o'rinish sabablari, shuningdek, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga va ulug' shoirning badiiy mahoratiga e'tibor qaratishgan³. Ular orasida, ayniqsa, S.Erkinovning "Navoiy "Farhod va Shirin"i va uning qiyosiy tahlili" monografiyasi Navoiy dostonining Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy asarlari bilan qiyosiy tahlil qilingani, Farhod obrazining evolyutsiyasi aniqlangani bilan ahamiyatga molik. T.Jalolovning "Xamsa" talqinlari" risolasida esa "Farhod va Shirin" dostonining obrazlar tizimiga, poetik unsurlari – qofiya, vazn, she'riy san'atlarning qo'llanishiga diqqat qaratilgan.

Istiqoldan keyingi yillarda o'zbek adabiyotiga, o'tmish ajdodlarimizga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishi natijasida Sharq mumtoz adabiyotining negizini, diniy-irfoniy mohiyatini, qolaversa, ramziy-majoziy ma'nolarini qayta talqin qilish imkoniyati va zaruriyati paydo bo'ldi. Shu ma'noda, N.Mallayev, N.Komilov, A.Abduqodirov, I.Haqqul, M.Asadov, Q.Ergashev, N.Jabborov, S.Rafiddinov, E.Ochilov, B.Rajabova, A.Qurbonov, Z.Rahmonova, O.Madayev,

² Абдурауф Фитрат. "Фарҳоду Ширин" дostonи тўғрисида. Танланган асарлар II жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 208 б.

³ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джамии. – М.: Наука, 1965. – 498 с; Бертельс Е.Э. Навоий. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2015. – 372 б; Айний С. Танланган илмий асарлар. – Тошкент: Фан, 1978. – 336 б; Шарафиддинов О. Алишер Навоий. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 1971. – 192 б; Зоҳидов В. Шеърлий эпик роман. (Сўзбоши) Алишер Навоий. Танланган асарлар. II китоб. Фарҳод ва Ширин. – Тошкент: Ўздавнашр, 1948. – 444 б; Ойбек. Навоий гулшани. – Тошкент, 1967. – 152 б; Олимжон Ҳ. Мукамал асарлар тўплами. Ўн томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1982. – 248 б; Шайхзода М. Асарлар. Опти томлик. Тўртинчи том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 1972. – 372 б; Жалолов Т. "Хамса" талқинлари. – Тошкент, 1960. – 143 б; Эркинов С. Навоий "Фарҳод ва Ширин"и ва унинг қиёсий таҳлили. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 1971. – 276 б; Қасимов А. "Фарҳод ва Ширин" сирлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 168 б; Маллаев Н. Сўз санъатининг гулгожи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 151 б; Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б; Аҳмедов Т. "Хамса" қаҳрамонларининг характер жозибаси. – Тошкент: Фан, 1986. – 67 б.

B.Erali, X.Xolmurodov⁴ kabi adabiyotshunoslarning risola, maqola va dissertatsiya ishlarida yangicha tahlil va talqinlar ko'zga tashlanadi. Professor N.Komilovning "Suqrot – komil inson timsoli" maqolasida "Farhod va Shirin" dostonining ma'rifiy g'oyalari, pir-u murshidlik tamoyillarining qahramon axloqiy kamolotidagi o'rni yoritilsa, A.Qurbonov asarning sarlavhalar badiiyatini tahlil qilgan. E.Ochilov Farhod obrazining ramziy-majoziy tabiatiga e'tibor qaratgan. B.Eralining izlanishlarida esa dostonning irfoniy ma'no qatlami u yoki bu darajada ochib berilgan.

Qolaversa, rus va qardosh xalqlar olimlarining, jumladan, Y.E.Bertels, K.V.Trever, A.Y.Yakubovskiy, A.K.Borovkov, V.M.Jirmunskiy, G.Yu.Aliyev, G.Begdeli, H.Arasli, Yashar Qosim va boshqalarning ishlarida ham "Farhod va Shirin" dostonining ayrim jihatlari bir qadar tadqiq etilgan⁵.

Dissertatsiyani yozishda o'zbek va chet el adabiyotshunolarining nomlari qayd etilgan tadqiqotlariga tayanildi va zaruriyat darajisida ulardan foydalanildi.

Mazkur tadqiqot "Farhod va Shirin" dostonining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati, syujet va obrazlar tizimining qadimiy ildizlari, adabiyotdagi takomili, ramziy-majoziy timsollarning talqini va tahlili, shuningdek, badiiy tasvir vositalarining o'ziga xos xususiyatlari monografik tadqiq etilganligi bilan o'zidan avval amalga oshirilgan ishlardan farq qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari, jumladan, "To'rt jildlik Alisher Navoiy ensiklopediyasi"ni nashr etish" (2021-2023-yy.) hamda "O'zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etish" (2024 – 2028-yy.) mavzulari doirasida bajarilgan.

⁴ Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 152 б; Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 272 б.; Абдуқодиров А. Навоий ва вахдат ул-вужуд таълимоти. – Хўжанд. 1995. – 97 б; Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 184 б; shu muallif. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 160 б ; shu muallif. Навоийга қайтиш. (4-китоб). – Тошкент: Тафаккур томчилари, 2020. – 240 б; Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995. – 168 б; Очлов Э. Бир ховуч дур. – Тошкент: O'zbekiston, 2011. – 240 б; shu muallif. Муборак сарчашмалар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 88 б; Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. – Тошкент: Тафаккур, 2020. – 352 б; shu muallif. Ошиқлик тарихи ва лирик қаҳрамон характери // Ўзбек тили ва адабиёт. 2021. №1. – Б. 91; shu muallif. Маънавий камолот манзиллари / Ҳуррият, 2025. №8.; Эргашев К. Некоторые аспекты государственной деятельности Алишера Навои. – Ташкент: Фан, 2009. – 56 с; shu muallif. Алишер Навоий асарларида комил инсон тушунчаси //Ўзбек тили ва адабиёти. 2023. №1. – Б.10-15; Ражабова Б. Шоҳғариб Мирзо Навоий таърифида //Ўзбек тили ва адабиёти. 2024. №1. – Б. 41-49; shu muallif. Муштарак адабий ҳодисалар. – Тошкент: Mihaqiq, 2019. – 180 б; Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Тошкент: Tafakkur tomchilari, 2021. – 264 б; Қурбонов А. "Хамса" сарлавҳалари бадияти. – Тошкент: Meriyus, 2016. – 188 б; Мадаев О. Навоий суҳбатлари. – Тошкент: O'qituvchi, 2018. – 248 б; Эрали Б. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари / Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги. Ўттиз жилдлик. Ўнгирма иккинчи жилд. – Тошкент: Tamaddun, 2021. – Б. 210-232; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Adabiyot, 2021. – 256 б; Холмуродов Х. Алишер Навоий шеърятда образ-тисмоллар трансформацияси (Фарход ва Ширин мисолида). Филол. ф.б.ф.д-ри (PhD) дисс. – Жиззах, 2022.

⁵ Алиев Г.Ю. Легенда о Хосраве и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Издательство Восточной литературы, 1960; Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. – Л.: Наука, 1979; Конрад Н.И. Средневосточное возрождение и Алишер Навои / Литература и театр. – М.: Наука, 1978; Бегдели Г. Тема "Хосров и Ширин" в Восточной литературе. – Баку: Elm, 1970. – 372 с; Арасли Х. Буюк шоир. Ўн сўз. – Боку, 1968; Қурамбоев К. "Қўнгул бермиш сўзимга". – Тошкент: Адабиёт ва санъат. – 176 б; Yashar Kosim. "Farhad va Shirin" dastaninin qahramanlari Azarbaycan adabiyatshunosliginda / Alisher Navoiy adabiy merosini o'rganish masalalari (№ 69). – Toshkent: Yashil yaproq, 2024. – 424 b.

Tadqiqotning maqsadi “Farhod va Shirin” dostonining o‘rganilishiga doir qarashlarni tizimli tarzda yoritish orqali asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ilm-fandagi yangi talqinlar asosida atroflicha ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Farhod va Shirin” dostonining o‘rganilishiga oid qarashlarni tizimli tarzda tahlil qilish orqali qo‘lga kiritilgan yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash;

dostonning genezisi bilan bog‘liq fikr-mulohazalarni atroflicha tadqiq etish asnosida obrazlar tarixi, ularning yuzaga kelish asoslari va dostonda o‘rinlashish omillarini ochib berish;

dostonning ramziy-majoziy tabiatiga xos jihatlarni adabiy matnning irfoniy, ma‘rifiy ma‘no ifodasiga tayanib dalillash;

“Farhod va Shirin” dostonining obrazlar tizimi, ularning asardagi badiiy vazifasi va muallif ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishdagi o‘rmini asoslash;

keyingi yillarda ilm-fan sohasida shakllangan diniy, tasavvufiy, irfoniy yondashuvlar nuqtayi nazaridan “Farhod va Shirin” dostonini chuqur tahlil qilish va atroflicha o‘rganish;

doston badiiyati, jumladan, vazn, qofiya masalalari, tasvir yo‘li, badiiy san‘atlardan foydalanish mahorati va poetik unsurlarning adabiy matn mazmuni bilan o‘zaro uyg‘unligini yoritish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiyning “To‘la asarlar to‘plami” VI jildiga kiritilgan “Farhod va Shirin” dostoni va asarni o‘rganishga doir monografik tadqiqotlar, maqola va tezislar olindi.

Tadqiqotning predmetini Sharq mumtoz adabiyotida “Farhod va Shirin” dostoni va obrazlar genezisi, yozma adabiyotda o‘rinlashish sabablari, obrazlar tizimi va ularga yuklatilgan irfoniy ma‘nolar, asarning kompozitsiyasi hamda g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarida aks etgan shoir badiiy mahorati masalalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, germenevtik, tavsiflash, struktural tahlil va induktiv yondashuv kabi tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Farhod va Shirin” dostonining o‘rganilish tarixiga e‘tibor qaratilib, tadqiqotlardagi yutuq va kamchiliklarni tasniflash orqali ularga munosabat bildirilgan va asarning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni adabiy matn mazmuniga tayanib dalillangan;

“Farhod va Shirin” dostonining shakllanish omillari aniqlanib, genezisi, obrazlarning tarixiy asoslari, yozma adabiyotda o‘rinlashish tamoyillarini yoritish asosida muallifning ijodiy konsepsiyasi ochib berilgan;

dostonning ramziy-majoziy tabiati obrazlar tizimi orqali tahlil qilinib, uning diniy, irfoniy ma‘no qamrovi buyuk mutafakkirning dunyoqarashiga uyg‘un holda yoritilgan hamda g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarining o‘ziga xosligi isbotlangan;

dostonning kompozitsiyasi, vazn, qofiya, radif kabi poetik unsurlarning adabiy matn mazmuni bilan mushtarakligi, shuningdek, Alisher Navoiyning she'riy san'atlarni qo'llash bilan bog'liq badiiy mahorati ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: "Farhod va Shirin" dostonining tarixiy ildizlari, obrazlar tizimining tarixiy takomili, yozma adabiyotda shakllanish tamoyillari, asar qahramonlari zimmasiga yuklatilgan badiiy vazifalarini aniqlash orqali chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

"Farhod va Shirin" dostonida ifodalangan g'oyalar hamda Farhod timsolining badiiy adabiyotdagi ma'naviy qiyofasi bugungi kun o'quvchisining tafakkurini, dunyoqarashini rivojlantirishda hamda jamiyatning ma'naviy-axloqiy tamoyillarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy muammoning izchil, aniq, muayyan tarzda qo'yilgani, adabiyotshunoslikning so'nggi ilmiy yutuqlari va ishonchli manbalar hamda lug'atlarga tayanilganligi, tahlillar va ulardan chiqarilgan xulosalarning aniqligi, fikr va nazariy qarashlarning tizimli yondashuv, qiyosiy-tipologik, tasniflash, ilmiy sharh, tarixiy-qiyosiy metodlar orqali asoslanganligi, nazariy qarash va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar nafaqat "Farhod va Shirin", balki "Xamsa" tarkibidagi boshqa dostonlarning ham poetik xususiyatlari, majoziy tabiati hamda mazmun-mohiyati yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi va to'ldiradi. "Farhod va Shirin" dostoni badiiyatining tasavvufiy-irfoniy jihatdan tadqiq etilishi, obrazlar rang-barangligi va ruhiyat masalalarining o'rganilishi hamda natijalarning mumtoz adabiyot tarixi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishga hissa qo'shishi, ko'plab ilmiy, amaliy tadqiqotlarda foydalaniish mumkinligi, mazkur natijalar o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek adabiyotshunosligi tarixi va adabiyotshunoslik nazariyasi kabi fanlarning rivojlanishi uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mazkur dissertatsiyadagi ilmiy xulosalar va tahlillaridan Alisher Navoiy "Xamsa"si va xamsanavislik an'alarini chuqurroq anglashda, buyuk ijodkorlarning ma'rifiy va estetik mafkurasini keng qamrovli yoritishda, mavzuga oid darslik, qo'llanma va risolalar yaratish jarayonida, shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida, xususan, oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda, ixtisoslashtirilgan maktablar va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan adabiyot darslarini boyitish maqsadida qo'shimcha manba sifatida qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya hamda ishlanmalar asosida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-2024-yillarda bajarilgan AL-662205561 raqamli "Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish ("Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi g'azallar asosida)" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 26-iyundagi №01/4-2761-son ma'lumotnomasi). Natijada mualliflik korpusi ma'lumotlar bazasi "Farhod va Shirin" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlar bilan boyishiga erishilgan.

O'zbek mumtoz adabiyotida "Farhod va Shirin" dostonidagi ramziy poetik timsollarning ko'chma, majoziy ma'nolarining ifoda imkoniyatlari va g'oyaviy-badiiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlarini asoslash bilan bog'liq ilmiy xulosalardan Qo'qon davlat pedagogika institutida 2022-yilda bajarilgan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha veb sayt va platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (Qo'qon universitetining 2025-yil 14-noyabrdagi №01/03-3007-son ma'lumotnomasi). Natijada Navoiy ijodida ifodalangan irfoniy ma'nolarning Qo'qon adabiy muhiti vakillari she'riyatida davom etganligini ko'rsatib berishdagi ahamiyati ilmiy dalillar asosida o'z isbotini topgan.

Ilmiy tadqiqot ishi xulosalari yuzasidan "G'azal bo'stoni", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dasturlarning 2023-2024-yillar hamda 2025-yil yanvar va fevral oylari sonlarida, jumladan, "Farhod va Shirin" dostonidagi irfoniy, tasavvufiy va rindona mavzular, muallif g'oyasi, an'anaviy obrazlar tizimi, asar strukturasi, syujet va kompozitsiyaning o'rni kabi masalalar borasida tadqiqotchi bilan bevosita suhbat olib borilgan. ("O'zbekiston" radiokanali DMning 2025-yil 11-iyuldagi 05-09-1125-son ma'lumotnomasi). Natijada "Farhod va Shirin" dostonining obrazlar talqinidagi an'anaviylik, asar g'oyasi va badiiy xususiyatlaridagi o'ziga xosliklar haqida bildirilgan fikrlar radiotinglovchilar uchun muhim ahamiyat kasb etishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning *“Farhod va Shirin” dostonining o'rganilish tarixi va genezisi* nomli dastlabki bobining birinchi fasli *“Farhod va Shirin” dostonining o'rganilishi* deb ataladi. Unda dostonning ilmiy jihatdan tekshirilishi va o'rganilishi xususidagi fikr-mulohazalar bildirilgan. Dostonni o'rganish borasidagi birinchi tadqiqot professor Abdurauf Fitratning *“Farhod-u Shirin” dostoni to'g'risida* (*“Alanga”* jurnali, 1930)gi maqolasidir. Shuningdek, Y.E.Bertels, S.Ayniy, O.Sharafiddinov, Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzoda, T.Jalolov, S.Erkinov, S.G'aniyeva, A.Qayumov, T.Ahmedov kabi olim va ijodkorlar dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga e'tibor qaratishgan. Abdurauf Fitrat tomonidan asarning xalq og'zaki ijodi hamda yozma adabiyotdagi variantlari qiyosan o'rganilgan. Dramaturg va tarjimon Xurshid 1925-yilda *“Farhod va Shirin”* dostoni asosidagi opera librettosini yaratadi. Xurshidning talqiniga ko'ra, asar voqealari Turkistonda bo'lib o'tgan⁶. Dramaturg Shirinning yurtini ham *“Arman otinda qishloq”* bo'lib, xalqi ham *“bari o'zbek”*dir, – deydi.

Abdurauf Fitratning yozishicha, Xurshidning bu fikrlari haqiqatdan ancha uzoq. Farhod tog'i, Shirin soyi deb atalgan joylarning doston genezisiga u qadar aloqasi yo'q, aksincha, tog' va soy nomlari keyinchalik Navoiy dostoni ta'sirida paydo bo'lgan. Fitratning maqolasi yuqoridagi kabi yanglish tushunchalarga aniqlik kiritish, tarix haqiqatini to'g'ri yoritish va *“Farhod va Shirin”* dostonini tahlil qilish maqsadida yozilgan. Qolaversa, professor S.Erkinovning *“Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili”* nomli monografiyasi dostonni atroflicha tadqiq etgan eng muhim ilmiy tadqiqotlardandir. Monografiya qiyosiy tahlillar va aniq manbalarga tayanib, qahramonlar xarakteriga yangicha yondashuvlarni o'rta tashlagani bilan navoiyshunoslikda alohida o'rin tutadi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda doston tadqiqi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ko'proq uning tasavvufiy tomoniga e'tibor qaratildi. Shu ma'noda, N.Mallayev, N.Komilov, A.Abduqodirov, A.Qurbonov, O.Madayev, B.Erali kabi adabiyotshunoslarning risola, maqola va dissertatsiyalarida yangicha tahlil va talqinlar ko'zga tashlanadi. Xususan, professor N.Komilovning *“Tasavvuf”* risolasidagi *“Suqrot – komil inson”*⁸ maqolasi *“Farhod va Shirin”* dostoni tahliliga bag'ishlangani bilan diqqatga molikdir. Unda asardagi ishq talqini, Farhod va Xusrav timsollari orqali ifodalangan tasavvufiy ma'nolar, aql va donishmandlik

⁶ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 105.

⁷ Эркинв С. Навоий “Фарход ва Шири”и ва унинг қиёсий тахлили. – Тошкент: Фан, 1971. – 276 б.

⁸ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 272 б.

ramzi bo'lgan Suqrot obrazi hamda dostonning g'oyaviy mazmuni atroflicha yoritilgan. Muallifning fikricha, shoirning asosiy maqsadi haqiqiy ishqning mazmun-mohiyatini ochib berishdan iborat. A.Qurbonov asarning sarlavhalar badiiyatini tahlil qilgan bo'lsa, B.Eralining izlanishlarida irfoniy ma'no qatlami ochib berilgan. Xulosa qilib aytganda, Fitrat, H.Olimjon, Oybek, O.Sharafiddinov, S.Ayniy, S.Erkinov, A.Qayumov kabi olimlar tomonidan olib borilgan qator ilmiy izlanishlar "Farhod va Shirin" dostonining o'ziga xos xususiyatlari va ulug' shoirning badiiy mahoratini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, uning adabiy, ma'rifiy hamda axloqiy ahamiyatini teranroq anglashimizga yordam beradi.

Bobning "*Farhod va Shirin*" dostoni genezisi" sarlavhali ikkinchi faslida dostonning genezisi, tarixiy takomili, badiiy adabiyotga o'rinlashishi xususida bahs yuritilgan. Alisher Navoiy o'z "Xamsa"si bilan, eng avvalo, Sharq adabiyotida Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan adabiy an'analarni badiiy-estetik jihatdan yangi pog'onaga yuksaltirdi. Shuningdek, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida yozilishicha, "Yana chun "Farhod va Shirin" shabistonig'a xayolim yuz tutubdur. Mir Xusravdami "Shirin va Xusrav" o'tidin charog'imni yorutubdur"⁹. Ma'lum bo'ladiki, ulug' shoir o'z dostonini yaratishda, xususan, bosh qahramon Farhod obrazini tasvirlashda bevosita Xusrav Dehlaviy asaridan asosiy badiiy manba sifatida foydalangan.

Afsona tarzida keng tarqalgan "Xusrav va Shirin" mavzusi yozma adabiyotga dastlab Firdavsiyning "Shohnoma" asari orqali kirib keldi. Asarda ko'proq Xusravning sulolaviy tarixiga, hukmdorlik faoliyatiga va harbiy yurishlariga e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, Sharq adabiyotida XI-XII asrlardan boshlab qahramonlik talqinining o'mini inson ruhiy holatini tasvirlashga asoslangan ishqiy-romantik dostonchilik an'analari egallay boshlagan. "Xusrav va Shirin" syujeti ana'nalari bo'yicha monografik tadqiqot olib borgan G'.Begdeli ham Nizomiydan keyin fors-tojik, hind va turkiy adabiyotda ko'plab asarlar yozilganini ta'kidlaydi¹⁰. G.Aliyev, G'.Begdeli¹¹ va S.Erkinovlarning¹² tadqiqotlarida doston genezisi borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Ozarbayjon olimi G.Aliyev Xusrav va Shiringa oid afsona va rivoyatlar, tarixiy ma'lumotlarni ikki guruhga – Suriya, Vizantiya va arman tarixchilari tomonidan yozilgan ma'lumotlarni birinchi guruhga, arab va fors manbalarini esa ikkinchi guruhga bo'lib o'rganadi¹³. Ularda Xusrav haqida keltirilgan fikrlarning aksariyati bir-biriga o'xshash¹⁴. Aniqrog'i, Xusrav obrazi davrlararo tarix zarvaraqlaridan adabiyot olamiga o'tib, o'zining hayotiy asosi – prototipidan ancha

⁹ Аlisher Navoiy. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 527.

¹⁰ Бегдели Г. Тема "Хосров и Ширин" в Восточной литературе. – Баку: Елм, 1970. – 372 с.

¹¹ Алиев Г.Ю. Легенда о Хосраве и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Издательство Восточной литературы, 1960. – 170 с.

¹² Эркинов С. Navoiy "Farhod va Shirin"ni va uning kissey taхlili. – Тошкент: Fan, 1971. – 276 b.

¹³ Маллаев Н. Алишер Navoiy va халқ оғзаки ижодиёти. – Тошкент: Фулом Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 115.

¹⁴ Маллаев Н. Алишер Navoiy va халқ оғзаки ижодиёти. – Тошкент: Фулом Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 155.

uzoqlashadi. Odil shoh g'oyasini ilgari surgan Nizomiy o'z dostonida Xusravni Shirin orqali "qayta tarbiyalab", adolatli shoh va sadoqatli, vafodor inson sifatida tasvirlaydi. Alisher Navoiy esa bu obraz borasida biroz boshqacha fikr yuritgan. N.Mallayevning yozishicha, "Navoiy Xusravning tamomila aksi bo'lgan, ya'ni xalq ertaklaridagi "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, zolim bir podshoh bo'lgan ekan..." qabilidagi o'nlab, yuzlab zolim podshohlarni jamlovchi obrazni yaratadi"¹⁵. Shunisi ham borki, Xusrav obraziga nisbatan bu kabi yondashuv biryoqlamalikni keltirib chiqaradi. Sababi, dostonida Xusrav ham uzoq yillar mamlakatni boshqarib, uni har sohada rivojlantira olgan, qo'l ostidagilarning hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lgan ulug'vor podshoh edi. U o'z sulolasining bardavom bo'lishi, o'zidan keyin mamlakat taqdiri ishonchli qo'llarda qolishi haqida haqli tarzda qayg'uradi. "Farhod va Shirin"da Xusrav faqatgina "zolim shoh" sifatida tasvirlanmagan, aksincha, unda davr va zamon hukmdorlarida bo'lgan kamchiliklar-u fazilatlar ham ifoda topgan.

Shirin haqidagi dastlabki ma'lumot Vizantiya tarixchisi Feofelakt Simokattaning "Tarix" asarida uchraydi. Kitobda u Seyrem nomi bilan tilga olingan¹⁶. VII asrda yashagan arman tarixchisi Sebeos ham Shirin haqida ayrim ma'lumotlar keltirib, "malikalar malikasi" deb tavsiflagan¹⁷. N.V.Pigulevskaya Shirinning vatani Xujiston ekanini yozadi¹⁸. Uning "Sosoniylar davrida Suriya anonim xronikasi" asarida Shirinning Xusravdan Mardonshoh ismli o'g'il ko'rgani qayd etiladi¹⁹. "Avesto"da Ardivisura (Nohid) – suv ma'budasi sohibjamol ayol qiyofasida tasvirlangan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Ardivisura Sura – Sira ko'rinishlarida o'zgarib, Shirin shakliga kelgan. Vizantiya va Eron manbalarida Xusrav Parvezning xotini Shirin emas, Sira tarzida uchrashini K.Trever²⁰ ham, Eron tarixiga oid manbalarni o'rgangan olim Y.Gibbon²¹ ham tasdiqlaydi. G.Aliyevning fikri esa ularning qarashlaridan sezilarli darajada farq qiladi: Shirin, agar biror so'zning o'zgargan shakli bo'lmasa, "ta'm" (shirin) ma'nosini ifodalaydi. Shirin so'zining kelib chiqishi fors tilidagi shir – "sut" ma'nosi bilan ham bog'langan. Aytish joizki, bu tarzda Shirin "tarixi"ni tiklashga intilish, shubhasiz, foydasiz, natijasizdir. Chunki Shirin allaqachon yakka shaxslikdan chiqib obrazga, go'zallik, sadoqat, aql-idrok timsoliga, xalqning suv haqidagi g'oyasi va orzusi tajassumiga aylangan²².

Farhod to'g'risidagi nisbatan to'liqroq ma'lumotlar esa X asrda yaratilgan "Tarixi Tabariy" asarida keltirilgan. Kitobda yozilishicha, Farhod Shirinni sevib qoladi, bundan xabar topgan Xusrav unga zulm qilish uchun Besutun tog'ini kesib,

¹⁵ Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ оғзаки ижодиёти. – Тошкент: Фулом Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 164.

¹⁶ Qarang: Feofilakt_Simokatta – Istorii (libcats.org).pdf – Б. 88. dl.libcats.org www.NataHaus.ru

¹⁷ История епископа Себеоса. Под редакцией С. Малхасянца. – Ереван: АрмФан-а, 1939. – С. 43.

¹⁸ Пигулевская Н.В. Византия и Иран на рубеже VI и VII веков. – М.: Академии наук СССР, 1946. – Б. 241.

¹⁹ Пигулевская Н.В. Анонимная Сирийская хроника о времени сасанидов. – М.: Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1939. Вып VII – С. 66.

²⁰ Эркинов С. Навоий "Фарход ва Ширин"и ва унинг қиёсий талқини. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 22.

²¹ Эркинов С. Навоий "Фарход ва Ширин"и ва унинг қиёсий талқини. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 22.

²² Qarang: Маллаев Н.Сўз санъатининг гултожи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 1991. –Б. 37.

suv chiqarishini buyuradi²³. “Shohnoma”da Kaykovusning jangovar qo‘shin boshliqlaridan birining ismi ham Farhod bo‘lgani yozilgan²⁴. G.Aliyevning aniqlashicha, Farhod tarixiy shaxs sifatida mavjud bo‘lmagan. U haqida Vizantiya, Suriya, arman, arab va fors manbalarida hech qanday ma’lumotlar uchramaydi. Fors yilnomasi – “Mujmal at-tavorix val-qisas”da Farhod Xusrav Parvezning sarkardasi bo‘lgani yozilgan²⁵.

Ilmda Farhodni tarixiy shaxs sifatida talqin qilishlar ham ko‘p kuzatiladi. Jumladan, ayrimlar badiiy adabiyotda Farhod obrazining prototipi Xusrav Parvezning sarkardasi – Shahrbaraz bo‘lganini aytishsa, boshqalar Shahrbaraz nomini Farruxon deb ko‘rsatishgan. “Tarixi Tabariy”da bu ism Farhon shaklida uchraydi²⁶. G.Aliyev ana shu mulohazalarga tayanib, “Farrux yoki Farhon so‘zi Farhod tarzida yozilgan bo‘lishi mumkin” degan xulosaga keladi²⁷.

Dostondagi obrazlardan biri Sheruya (Qubod ibn Xusrav)dir. U asar syujetida o‘zining tarixiy prototipiga ancha yaqin bo‘lgan yagona obraz sifatida ahamiyatli. Shu sababli Sheruyaning tarixiy shaxs va adabiy qahramon sifatidagi talqinlarini qiyoslab o‘rganish u haqida muayyan tasavvurga kelish imkonini beradi. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida yozilishicha, Sheruya otasini o‘ldirib, sakkiz oy taxtda o‘tirgan (Vaboda halok bo‘lgunicha)²⁸. Abu Mansur as-Saolibiyning tazkirasida berilishicha, ham ota, ham ona tomondan podshoh oilasiga mansub bo‘lgani uchun Sheruya jamiki tabaqalarning eng irqilari (zotlilari)dandir, biroq otasi Parvizni o‘ldirib, podshohligini egallaydi va undan keyin olti oy yashaydi²⁹. Darhaqiqat, yuqoridagi ma’lumotlar ham Sheruya obraziga xos jihatlarning shakllanishiga yordam bergan.

Dostonda Mehinbonu obrazi ham alohida ahamiyatga ega. “Mehinbonu” so‘zi lug‘aviy jihatdan “ulug‘ xotun”, “ulug‘ beka” ma’nolarini bildiradi³⁰. Nizomiy asarida u Shamira tarzida tilga olinadi:

Shamira adlanur o go‘ychak kadin,
Buyukdur ma‘nasi bu go‘zal adin.
Jur‘etde kishiden hech geri durmur,
Buyuk oldugundan Mahin Banudur³¹.

Professor Y.E.Bertelsning ta’kidlashicha, Nizomiy asaridagi Shamira ko‘plab afsonalarda qayd etilgan Semiramida bilan o‘xshashdir³².

²³ <https://Islomiy.info/kitoblar/tabariy.pdf> – B. 489. (Turk tilidan Abu Muslim tarjimasi)

²⁴ Эркин С. Навоий “Фарход ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 179.

²⁵ Qarang: Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Издательство Восточной литературы, 1960. – С. 76.

²⁶ <https://Islomiy.info/kitoblar/tabariy.pdf> – B. 490.

²⁷ Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Издательство Восточной литературы, 1960. – С. 77.

²⁸ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I том. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 144.

²⁹ Абу Мансур ас-Саолибий. Китоб лагониф ал-маориф. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 32.

³⁰ Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Издательство Восточной литературы, 1960. – С. 84.

³¹ Низами Гяنجави. Хосров и Ширин. – Бакы: Лидер няшрийат, 2004. – Сях. 64.

³² Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока. – М.: Издательство Восточной литературы, 1960. – С. 82.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “G‘oya, mavzu va ma’no mushtarakligi” deb nomlanadi. Uning “Dostondagi g‘oya, mavzu va muallif konsepti uyg‘unlashuvi” faslida “Farhod va Shirin” dostonida ilgari surilgan g‘oya, mavzu hamda ularning muallif konsepti bilan mushtarakligi masalalari tahlil qilingan. Alisher Navoiy Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari o‘rtasida mashhur bo‘lgan Xusrav, Shirin va Farhod haqidagi afsonalardan ilhomlanib, qolaversa, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy kabi mumtoz so‘z san‘atkorlarining adabiy an‘analarini davom ettirib, o‘z dostonini milliy-ma’naviy qadriyatlar va insonparvarlik g‘oyalari bilan boyitdi. Shunga ko‘ra, dostonning markaziy g‘oyasi haqiqiy ishq orqali inson ruhining ma’naviy poklanishi hamda komillik sari yuksalishidir. Muallifning talqinicha, haqiqiy ishq insonni nafs, manfaat, mol-dunyo vasvasasidan xalos qilib, ruhiy yetuklik tomon eltuvchi kuchdir. Mazkur g‘oya dostonning barcha boblarida, jumladan, obrazlar tizimida ham ifodalanib, Navoiyning ijtimoiy, axloqiy, irfoniy qarashlari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Xususan, bosh qahramon Farhodning Shiringa bo‘lgan sevgisi zohirda dunyoviy – majoziy muhabbat kabi ko‘rinsa ham, botinan u ishq ilohiyga insonning ruhiy safarini ifodalaydi. Farhod tog‘- u toshlarni kesib suv chiqarish, mehnat bilan xalqning og‘irini yengil qilish va yaratuvchanlik orqali o‘z nafsi ustidan g‘alaba qozonib, ma’naviy poklikka erishadi. Demak, haqiqiy ishq mehnat, mashaqqat, sabr, iroda va sadoqat bilan hamohang bo‘lgandagina insonni kamolot sari yetaklaydi, – deydi shoir. Shirin obrazi esa zohiran Farhodning majoziy muhabbatini anglatsa ham, botinan “mazhar” – “ilohiy jamol” ma’nosini ifodalaydi. Voqealar rivojida Farhod o‘z muhabbatini nafaqat Shiringa, balki uning “Husni”, “jamoli” orqali Allohga izhor etadi. Shu ma’noda, Farhod Haq ma’rifatini anglashga intilayotgan yo‘lchi – solikdir. Mehinbonu obrazi ham dostonda nafaqat hukmdor, balki yetuk kamolot egasi va Farhodga ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi, yo‘lboshchi sifatida gavdalanadi. Jumladan:

Ki, ey farzand, bir dam tut o‘zungni,
Dame asra ko‘ngul birla ko‘zungni³³.
Bu yanglig‘ ko‘p sabaq irshod qildi,
Muassir ko‘p qasam ham yod qildi³⁴.

Ushbu satrlarda Mehinbonuning ma’naviy rahnamolik maqomi yoritilgan. “Bir dam tut o‘zungni” iborasi nafsni jilovlash, qalb xotirjamligiga ishora qiladi. Tasavvufda “dam”, “nafas”, “vaqt” deganda solik har bir nafasni Alloh yodi bilan o‘tkazishi lozimligi ham tushuniladi. Abu Ali ad-Daqqoqqa ko‘ra, orifning nafasi erkin chiqmaydi (ya’ni orif Xudosiz nafas olmaydi), chunki unga ruxsat etilmaydi³⁵. “Ko‘ngul birla ko‘z”ni “asrash” iborasi esa naqshbandiya tariqatidagi “nazar bar qadam”ning dostonidagi shoirona talqinidir. “Nazar bar qadam” – “qadamga nazar”ning zohiriy ma’nosi shuki, solik yo‘lda yurganda nazari doim oyoq panjalarining ustida bo‘lsin, uning nazari sochilmasin va keraksiz joyga

³³ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 538.

³⁴ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 539.

³⁵ Kuşeyri. Risale-i Kuşeyri. – Istanbul, 1978. – S. 163.

tushmasin³⁶. Adabiyotshunos S.Rafiddinovning qarashlari ham bu fikrni quvvatlaydi: “Solik agar naqshbandiya yo‘lida yurishni qasd qilib, rag‘bat ko‘rsatsa, har bir qadamini bilib bosishi, undan nazarini uzmasligi, g‘aflatda qolmasligi kerak”³⁷. Botiniy ma‘noda esa solik bajarayotgan har bir xatti-harakatida o‘z qadamlariga nazar solib, niyati va maqsadini nazorat qilishi anglashiladi. Nafsnı tiyib, bir lahza, bir nafas bo‘lsa ham, Alloh roziligi uchun qadam bosish – “nazar bar qadam”dir. Mehinbonudan farqli ravishda asarda Xusrav – haqiqiy ishq sirini bilishdan mahrum, dunyoparast hukmdor timsoli. Shuningdek, Xusravni mutlaq ishqsizlikda ham ayblab bo‘lmaydi. Unda ham muhabbat tuyg‘usi bor, biroq bu muhabbatning mohiyati va holati Farhodning ishqidan sezilarli darajada farq qiladi. Xusravning ishqı – avom ishqiga mansub. Qolaversa, u dunyoviy va shaxsiy manfaatlarini muhabbat kechinmalari bilan aralashtirib yuboradi. Xusrav muhabbatga zo‘rlık bilan erishishga harakat qiladi. Vaholanki, haqiqiy ishq yo‘lida zo‘rlık yo‘q, balki zorlık va taslimiyat bor. Junayd Bag‘dodiyga ko‘ra, Olloh yomonlikni ko‘zlagan kishiga muhabbatni harom qildi. Har muhabbat bir narsaning javobidir. U narsa zoil qilinganda muhabbat ham zoil bo‘ladi³⁸. Ishqning mohiyati esa poklık, tiyraklık va yuksaklıkni talab qiladi. Shuning uchun ham ishq mol-dunyo, hirs, nafs hamda tubanlıkka mag‘lub bo‘lgan qalbdı bo‘y ko‘rsatmaydi.

Bobning “*Irfoniy ma‘no, talqin va tasvirdagi yangilanishlar*” deb nomlangan ikkinchi faslıda “Farhod va Shirin” dostonidagi irfoniy g‘oyalarning yangicha talqini borasida bahs yuritilgan. Ma‘lumki, irfoniy adabiyotda ishq Haqiqatga, asl muhabbatga eltuvchi yo‘ldir. Ishq insonga ma‘naviy toj bo‘lib, hayotiga mazmun bag‘ishlaydi, qalbiga ilohiy nur indiradi. Yor vasliga esa sinovlarsiz, balo va mashaqqatlarsiz erishib bo‘lmaydi. Shu jihatdan dostonda ifodalangan mehnat va riyozat tasodifiy emas. Navoiy Farhodning ruhiy safari to‘siq va qiyinchiliklarsiz yuzaga chiqmasligini ko‘rsatish uchun voqea-hodisalarni sevgi uchrashuvidan emas, balki bosh qahramon yengib o‘tishi lozim bo‘lgan mashaqqatli sinov hamda sarguzashtlardan boshlaydi. N.Komilov “Nega Navoiy voqealarni to‘g‘ridan to‘g‘ri Shirin bilan uchrashishdan boshlamagan, asarning teng yarmi afsonaviy sarguzashtlar tasviriga bag‘ishlangan?” – deya savol qo‘yadi³⁹. Fikrimizcha, doston syujetining bu taxlit boshlanmasligiga bir nechta sabablar bor: 1. Agar voqealar Farhod va Shirinning uchrashuvidan boshlansa, Farhodning ma‘naviy maqomi, ishqning mukammal jozibası, oshiq kayfiyatining tadrijiy takomili haqida tizimli tasavvurga ega bo‘lish qiyin bo‘lar edi. 2. Balog‘at yoshiga yetgan qalbdı, odatda, avom ishqı yetakchilik qiladi. Qolaversa, Navoiy inson haqiqiy ishqni kichikligidanoq taniy bilishi kerakligini ta‘kidlamoqchi bo‘ladi. 3. Farhodning ruhiy kamoloti bosqichma-bosqich tasvirlanishi zarur edi.

³⁶ Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон. – Тошкент: Ёзувчи, 1993. – Б. 10.

³⁷ Alisher Navoiy ensiklopediyasi. To‘rt jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – Б. 168.

³⁸ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул-кулуб. Иккинчи китоб. – Тошкент: Минҳож, 2004. – Б. 204.

³⁹ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 203.

4. Farhodning afsonaviy sarguzashtlari dostonning estetik ta'sirchanligini oshirib, Navoiyning irfoniy qarashlarini tushunishga keng yo'l ochadi.

Ishq Farhodning tan-u ruhiga ibtidodan singgan. "Ishq doyasi" uni parvarishlab, bu yo'lda duch keladigan mashaqqat va qiyinchiliklarni yengib o'tishga ruhan tayyorlaydi. Farhodning ma'naviy holini teranroq idrok qilish uchun uning Xusrav bilan bo'lgan munozarasiga diqqat qilish lozim. Farhod o'zining ishqdagi maqomini quyidagicha ifodalaydi:

Dedi: Qay chog'din o'lding ishq aro mast?

Dedi: Ruh ermas erdi tang'a payvast⁴⁰.

Bu bilan Qur'oni karimning "A'rof" surasi 172-oyatiga ishora qilinadi. Unda alast kuni, ya'ni ruhlar o'z Parvardigoriga imon keltirgan vaqtda Allohning ishq bilan "mast" bo'lganlari aytiladi. Azaldan oshiqlik motivi – Farhod ruhiyatining o'zagidir. Ishq – borliqning asosi, tiriklik mohiyati, insoniy kamolot yo'li. Oshiq uchun yagona maqsad ham, aslida, ana shu – ishqdir⁴¹.

Farhod va Xusrav o'rtasidagi farq, ularning dunyoqarashi, salohiyati, saviyasi orasidagi tafovut, ayniqsa, munozara – dialogda yaqqol namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, ushbu munozara asardagi ikki muhim qahramonning hayotiy maqsadlari, xulq-atvor mezonlarini, ya'ni shaxsiyatini namoyish etadi:

Dedi: Qaydin sen ey majnuni gumroh?

Dedi: Majnun vatandin qayda ogoh⁴²?

Javoblardan ma'lum bo'ladiki, Farhodning holati tasavvuf olamidagi mashhur shaxslardan biri – Balx hukmdori bo'lgan Ibrohim Adhamning kayfiyatiga yaqin. Tadqiqotda bu fikrlar misollar vositasida dalillangan. So'fiylarga ko'ra, solik qachonki shaxsiy o'zligini unutsa, haqiqiy o'zlikni topa oladi.

Farhodning har bir harakati tasavvufdagi "go'zal xulq" g'oyasining badiiy ifodasidir. Zero, Qur'oni karimda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) haqida: "Va, albatta, sen buyuk xulq ustidasan" [Qalam: 4.] deb zikr qilingan. Farhod obraziga ham fidokorlik, pok niyat, sadoqat kabi go'zal sifatlar singdirilgan. Shubhasiz, Farhod payg'ambarimizning barcha ko'rsatmalari va sunnatlarini qabul qilgan munosib ma'naviy vorislardan biri sifatida gavdalanirilgan. Xulosa shuki, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy Farhod obrazi orqali o'zbek mumtoz adabiyotida g'oyatda muhim mavqe tutgan chinakam komil inson siymosini yaratgan.

